O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI BAXMAL TUMANI HOKIMINING QARORI

IND:131000 *O’smat sh. Mustaqillik ko’chasi 42-uy.*

2023 - yil 4 - oktabr 326-3-44-Q/23 Baxmal tumani hokimligi

Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasini hudud va mikrohududlarga biriktirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 5-bob, 39-bandi ijrosi yuzasidan tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2023-yil 18-maydagi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir umumiy o’rta ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to‘g‘risida”gi 294-sonli xati o‘rganib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 5-, 6-, 25-moddalariga muvofiq

Q A R O R Q I L A M A N:

1.Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2023-yil 18-maydagi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to‘g‘risida”gi 294 -sonli xati ma’qullansin.

2.Tumandagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarini shaharcha, qishloq va mahalla fuqaro yig‘inlaridagi hudud va mikrohududlarga biriktirish haqidagi ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman hokimining o‘rinbosari (X.Xo‘jamuratov)ga, tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i (K.Gulboyev)ga va tumandagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari rahbarlarining zimmalariga:

- maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga 7 yoshga to‘ladigan yilda to‘liq qamrab olish;

- o‘quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan doimiy monitoring olib borish;

- monitoring natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish vazifasi topshirilsin.

4.Tumandagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalar rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida umumiy o‘rta ta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish uchun mas’ul ekanliklari belgilab qo‘yilsin.

5.Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish tuman bo‘limi (Z.Ko‘liyev)ga mahalla fuqarolar yig‘ini raislari bilan birgalikda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga qamrab olish jarayonida tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga amaliy yordam berish tavsiya etilsin.

6.Mazkur qaror “Baxmal hayoti” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining veb-saytiga joylashtirilsin.

7.Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari X.Xo‘jamurotov va tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i K.Gulboyevlar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **M.Anarbaev**

Baxmal tuman hokimining
2023-yil 4-oktabrdagi
326-3-44-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini shaharcha, qishloq va mahalla fuqaro yig‘inlaridagi hudud va mikrohududlarga biriktirish haqidagi

R O‘ Y X AT I

T/r	Maktab raqami	Joylashgan joy nomi	Biriktirilgan uchastka hududi
1	1 -maktab	Do‘stlik MFY	O‘smat SHFY O‘smat shaharchasi, Mustaqillik ko‘chasi, X.Olimjon ko‘chasi, A.Xudoybaxtov ko‘chasi, T.Sulaymonov ko‘chasi, Farovon ko‘chasi, Yumaloqbosh qishlog‘i, Karopchi qishlog‘i, Do‘stlik mahallasi
2	2 -maktab	Qutlug’obod MFY	Qutlugshobod MFY Yo‘ldoshboy qishloq
3	3 -maktab	Qutlug‘obod MFY	Qutlug‘obod MFY Kaltatoy qishloq
4	4 -maktab	Nurobod MFY	Nurobod MFY Mirzayesagi qishloq, Kaltatoy-2 qishloq
5	5 -maktab	Oqtosh QFY	Oqtosh QFY o‘ray qishloq, Saroy qishloq, Yangi hayot
6	6 -IDUM	Fayzobod MFY	Fayzobod MFY Olomon qishloq, Qaropchi qishloq, Egarchi qishloq
7	7 -maktab	Do‘stlik MFY	Do‘stlik MFY Jarbuloq qishloq
8	8 -maktab	Novqa MFY	Novqa MFY Novqa mahallasi
9	9 -maktab	Novqa MFY	Novqa MFY Novqa mahallasi
10	10 -maktab	Mo‘g‘ol QFY	Mo‘g‘ol QFY Bog’imozor Uyas qishloq
11	11 -maktab	Mo‘g‘ol QFY	Mo‘g‘ol QFY Mo‘g‘ol-2 qishloq
12	12 -maktab	Nushkent MFY	Nushkent MFY Vadigon qishloq, Jo‘m-Jo’m qishlog‘i Merganto’pi ko‘chasi
13	13 -maktab	Oyqor QFY	Oyqor QFY Qaropchi qishloq
14	14 -maktab	Oyqor QFY	Oyqor QFY Tangatopdi qishloq
15	15 -maktab	Oyqor QFY	Oyqor QFY Sartyuzi qishloq
16	16 -maktab	Temirqadam MFY	Temirqadam MFY Temirqadam qishloq
17	17 -maktab	Temirqadam MFY	Temirqadam MFY Oqqorg‘on qishloq
18	18 -maktab	Baxmal QFY	Baxmal QFY Qirqqishloq, Qorg‘onli qishloq
19	19 -maktab	O‘rmonchi MFY	O‘rmonchi MFY Bekkeldi qishloq, Ilonchi qishloq

			Vatanparvar MFY 23241 va24114-xarbiy qism
20	20 -maktab	O‘rmonchi MFY	O‘rmonchi MFY Uyluqma qishloq, Baytak qishloq, Baxmalsoy qishloq, Ko’kjar qishloq;
21	21 -maktab	Muzbuloq MFY	Muzbuloq MFY Muzbuloq qishloq
22	22 -maktab	Muzbuloq MFY	Muzbuloq MFY Jillibuloq qishloq, Oqmulla qishloq, Qorasuv qishloq, Qarong’isoy qishloq
23	23 -maktab	Baxmal QFY	Baxmal QFY Abay qishloq, Shaybek qishloq
24	24 -maktab	Molguzar MFY	Molguzar MFY Jadiq qishloq, Sutlibuloq qishloq, Tangatopti-2 qishlog‘i
25	25 -maktab	Molguzar MFY	Molguzar MFY Duvlat qishloq, Chayish qishloq, Galduraut qishloq
26	26 -maktab	Nushkent MFY	Nushkent MFY Mullabuloq qishloq, Kattaqishloq qishloq, To‘pon qishloq, Buvoysha qishloq, Xo‘jabachcha qishloq
27	27 -maktab	Sangzor QFY	Sangzor QFY Chubar qishloq
28	28 -maktab	G‘allakon MFY	G‘allakon MFY O‘damali qishloq, Sangzor qishloq
29	29 -maktab	G‘allakon MFY	G‘allakon MFY O‘damali qishloq
30	30 -maktab	Saroy MFY	Saroy MFY Saroy qishloq
31	31 -maktab	Barlos QFY	Barlos QFY Muzbel qishloq
32	32 -maktab	Barlos QFY	Barlos QFY Barlos qishloq
33	33 -maktab	Bog‘ishamol QFY	Bog’shishamol QFY Mo‘g‘ol qishloq, Navro‘z qishloq
34	34 -maktab	Fidokor MFY	Fidokor MFY Alamli qishloq
35	35 -maktab	Fidokor MFY	Fidokor MFY Kamar qishloq
36	36 -maktab	Nurafshon MFY	Nurafshon MFY Tongotar qishloq
37	37 -maktab	Tongotar QFY	Tongotar QFY Yangibogsh qishloq, Loyqa qishloq, Gubur
38	38 -maktab	Tongotar QFY	Tongotar QFY Qoshshtepa, Gubur qishloq
39	39 -maktab	Oyqor QFY	Oyqor QFY Sovuqbuloq qishloq
40	40 -maktab	Nurafshon MFY	Nurafshon MFY Gulobod qishloq
41	41 -maktab	Shodlik MFY	Shodlik MFY Shodmon qishloq, Quduq qishloq
42	42 -maktab	Gulbuloq QFY	Gulbuloq QFY Changal qishloq, Qaropchi qishloq
43	43 -maktab	Uzunbuloq QFY	Uzunbuloq QFY Sho‘rbuloq qishloq, Ko’rbuloq qishloq, Mavtan qishloq, Boshston qishloq, Mustaqillik MFY, Yuqori qishloq, Kamar qishloq, Bo‘zaxona qishloq, Chiroqchi qishloq

44	44 -maktab	Bunyodkor MFY	Bunyodkor MFY Tengali qishloq, Do‘smat qishloq, Maxsum qishloq
45	45 -maktab	Mo‘g‘ol QFY	Mo‘g‘ol QFY Mo‘g‘ol-1 qishloq
46	46 -maktab	Madaniyat MFY	Madaniyat MFY Madaniyat qishloq, Buloqboshi qishloq
47	47 -maktab	Uzunbuloq QFY	Uzunbuloq QFY Boshston qishloq, O‘rtaqishloq qishloq
48	48 -maktab	Mustaqillik MFY	Mustaqillik MFY Mo‘g‘ol qishloq, Qoratosh qishloq, Qatortol qishloq, O‘ray qishloq
49	49 -maktab	Uzunbuloq QFY	Uzunbuloq QFY Zafarobod qishloq
50	50 -maktab	Gulbuloq QFY	Gulbuloq QFY Misr qishloq, Olmazor qishloq, Jarqishloq qishloq, Gulbuloq qishloq, Yangihayot qishlog‘i, Yangi Govxona, Changal qishlog‘i
51	51 -maktab	Temirqadam MFY	Temirqadam MFY Tagop qishloq
52	52 -maktab	Sangzor QFY	Sangzor QFY Nuravshon qishloq, Xoltoy qishloq
53	53 -maktab	Madaniyat MFY	Madaniyat MFY Maydabuloq qishloq,O‘ray qishloq, Tengali qishloq
54	54 -maktab	Uzunbuloq QFY	Uzunbuloq QFY Yangiobod qishloq, O‘rta qishloq, Uzunbuloq qishloq
55	55 -maktab	Muzbuloq MFY	Muzbuloq MFY Boyqo’ng’ir qishloq, Aldoshmon qishloq
56	56 -maktab	Barlos QFY	Barlos QFY Soylik qishloq
57	57 -maktab	Istiqlol MFY	Istiqlol MFY Navruz qishloq, Sho‘rbuloq qishloq
58	58 -maktab	Temirqadam MFY	Temirqadam MFY Palaxmon qishloq, Qorabuloq qishloq, Dangara qishloq
59	59 -maktab	Novqa MFY	Novqa MFY Oqtosh, Ko‘rbuloq qishloq
60	60 -maktab	Baxmal QFY	Baxmal QFY Baxmal qishlog‘i
61	61 -maktab	Oyqor QFY	Oyqor QFY Sarpichoq qishloq, Sartyuzi
62	62 -maktab	Muzbuloq MFY	Muzbuloq MFY Zartepa qishloq
63	63 -maktab	Tongotar QFY	Tongotar QFY O‘ray qishloq
64	64 -maktab	Bogshishamol QFY	Bogshishamol QFY Ko’shdarxat qishloq, Mo‘g‘ol qishloq
65	65 -maktab	Qutlug’obod MFY	Qutlug‘obod MFY O‘smat-Barlos qishloq
66	66 -maktab	Tongotar QFY	Tongotar QFY Tongotar qishloq
67	67 -maktab	Sangzor QFY	Sangzor QFY Qora qishloq
68	68 -maktab	Fayzobod MFY	Fayzobod MFY Yangi hayot qishloq
69	69 -maktab	Nurobod MFY	Nurobod MFY Kaltatoy-2 qishloq, Govxona qishloq, Mirzayesagi qishloq
70	70 -maktab	Nushkent MFY	Nushkent MFY Jum-jum qishloq

71	71 -maktab	Oyqor QFY	Oyqor QFY Oyqor qishloq
72	72 -maktab	Baxmal QFY	Baxmal QFY Shovshoq qishloq
73	73 -maktab	Navbaxor MFY	Navbaxor MFY Qoraqursoq qishloq
74	74 -maktab	Shodlik MFY	Shodlik MFY Qamishko'l qishloq
75	75 -maktab	O‘rmonchi MFY	O‘rmonchi MFY Terakli qishloq, Kokjar qishloq, O‘rmonchi qishloq
			Vatanparvar MFY 23241 va24114-xarbiy qism
76	76 -maktab	Nurafshon MFY	Nurafshon MFY Toypoqsoy qishloq, Tongotar qishlog‘i
77	77 -maktab	Bunyodkor MFY	Bunyodkor MFY Mehnatobod qishloq, Yangi O'ray, Gultepa qishloq, Bo‘ron qishloq
79	79 -maktab	Nurobod MFY	Nurobod MFY O‘roy qishloq, Mo‘g‘ol qishloq, Bunyodkor qishloq
80	80 -maktab	Muzbuloq MFY	Muzbuloq MFY Sopi qishloq
81	81-matematikaga ixtisoslashtirilgan maktab	Do‘stlik MFY	O‘smat SHFY O‘smat shaharchasi, Mustakillik ko‘chasi, X.Olimjon ko‘chasi, A.Xudoybaxtov ko‘chasi, T.Sulaymonov ko‘chasi, Farovon ko‘chasi, Yumaloqbosh qishlog‘i, Qaropchi qishlog‘i, Do‘stlik mahallasi
82	82-maktab	Baxmal QFY	Baxmal QFY Qorg‘onli qishloq
83	83-maktab	Sangzor QFY	Sangzor QFY Xoltoy qishloq
84	84-maktab	Bunyodkor MFY	Navbaxor MFY Soy qishlog‘i
85	85-maktab	Baxmal QFY	Baxmal QFY To‘rttol qishlog‘i
86	86-maktab	Saroy MFY	Saroy MFY Saroy qishlog‘i

Eslatma: 78-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi Prezident maktabi agentligiga o‘tganligi sababli mikrohududga biriktirilmadi.